TÖQIMAÇILIK SANOATI, IPAK, PAXTA, JUN MAHSULOTLARIDAN MATOLAR TÖQIŞ TEXNIKASI HAMDA SURXON VOHASI GILAMDÖZLIK SAN'ATI

Termiz davlat universiteti San'at va ijtimoiy iş fakulteti
Xalq ijodiyoti folklor va etnografiya yönalişi talabasi
Mardayeva Gözal Bozorovna

Annotatsiya: Uşbu matnda töqimaçilik sanoatining tarixiy rivojlanişi hamda tabiiy tolalardan mato töqiş texnologiyalari tahlil qilingan. Maqolada paxta, ipak va jun xomaşyolariga işlov beriş, ulardan böz, atlas, adras kabi an'anaviy matolarni işlab çiqarişning öziga xos bosqiçlari va texnik usullari yoritilgan. Şuningdek, Özbekiston xalq amaliy san'atining ajralmas qismi bölgan Surxon vohasi gilamdözlik maktabi, xususan, Boysun va Şerobod hududlariga xos bölgan gilam töqiş sirlari, xalqona naqşlar simvolikasi ("qöçqormuğiz", "tuyatoş") hamda an'anaviy "örmek" dastgohining amaliy ahamiyati batafsil bayon etilgan. Material töqimaçilik sohasi mutaxassislari, hunarmandlar va madaniy meros tadqiqotçilari uçun möljallangan.

Tayanç sözlar: töqimaçilik, paxta, ipak, jun, atlas, adras, Surxon vohasi, gilamdözlik, örmek dastgohi, gajari, terma, qöçqormuğiz, xalq amaliy san'ati.

Аннотация: В данной статье анализируются историческое развитие текстильной промышленности и технологии ткачества из натуральных волокон. Рассматриваются специфические этапы и технические методы обработки хлопка, шелка и шерсти, а также производство таких традиционных тканей, как бяз, атлас и адрас. Особое внимание уделено ковродельческой школе Сурханского оазиса, являющейся неотъемлемой частью узбекского народного прикладного искусства. В частности, подробно описаны секреты ковроткачества, присущие Байсунскому и Шерабадскому регионам, символика народных узоров («кочкармугиз», «туятош») и практическое

значение традиционного ткацкого станка «ормек». Материал предназначен для специалистов текстильной отрасли, ремесленников и исследователей культурного наследия.

Ключевые слова: текстиль, хлопок, шелк, шерсть, атлас, адрас, Сурханский оазис, ковроделие, станок ормек, гаджари, терма, кочкармугиз, народно-прикладное искусство.

Abstract: This article analyzes the historical development of the textile industry and weaving technologies using natural fibers. It examines the specific stages and technical methods of processing cotton, silk, and wool, as well as the production of traditional fabrics such as byaz, atlas, and adras. Special attention is paid to the carpet-weaving school of the Surkhan oasis, which is an integral part of Uzbek folk applied art. In particular, the secrets of carpet weaving inherent in the Boysun and Sherobod regions, the symbolism of folk patterns ("qochqormughiz", "tuyatosh"), and the practical significance of the traditional "ormek" weaving loom are described in detail. The material is intended for textile industry specialists, craftsmen, and cultural heritage researchers.

Keywords: textiles, cotton, silk, wool, atlas, adras, Surkhan oasis, carpet weaving, ormek loom, gajari, terma, qochqormughiz, folk applied art.

KİRİŞ

Insoniyat sivilizatsiyasi va madaniy taraqqiyotining ilk davrlaridanoq töqimaçilik eng hayotiy zaruriyat va iqtisodiy faoliyat turlaridan biri bölib kelgan. Dastlab ibtidoiy odamlar hayvon terilari hamda ösimlik pöstloqlaridan kiyim örnida foydalangan bölsalar, evolutsion rivojlaniş natijasida jun, ziğir va paxta tolalaridan ip yigiriş hamda ularni özaro öraş orqali mato töqiş texnikasini özlaştirdilar. Qadimgi dunyoning yirik markazlari sanalmiş Misr, Hindiston, Xitoy va Mesopotamiyada töqimaçilik hunarmandçiligi yuqori bosqiçga kötarilib, har bir mintaqaning öziga xos xomaşyoni qayta işlaş maktablari şakllandi. Xususan,

Qadimgi Misr özining nafis ziğir matolari, Hindiston paxta gazlamalari, Xitoy esa butun dunyoga maşhur ipakçilik an'analari bilan jahon savdo va madaniyat maydonida yetakçilik qildi. Markaziy Osiyo hududi, xususan, Özbekiston zamini qadimdan tabiiy tolalardan (ipak, paxta, jun) yuqori sifatli matolar tayyorlaşning yirik markazlaridan biri hisoblanadi. Örta asrlardan boşlab bu tarmoq nafaqat aholining kiyim-keçak va rözğor ehtiyojlarini qondirgan, balki Buyuk Ipak yöli orqali jahon bozoriga eksport qilinuvçi strategik mahsulot darajasiga kötarilgan. Mazkur tarixiy an'analar Özbekistonning turli mintaqalarida öziga xos subetnik va lokal xususiyatlarga ega bölib, Toşkent vohasining sanoatlaşgan tizimi, Farğona vodiysining (Marğilon) xonatlas va adraslari, Buxoroning zardözlik hamda Xorazmning geometrik naqşli kaştaçilik maktablarida öz aksini topgan. Surxon vohasi özining etno-madaniy qiyofasi, uzoq asrlik çorvaçilik an'analari va xalq amaliy san'atining qadimiy qatlamlarini saqlab qolganligi bilan ajralib turadi. Boysun, Şerobod va Sariosiyo singari toğ va toğoldi hududlarida yaşovçi aholining turmuş tarzi jun va paxta tolalarini qayta işlaş, ulardan an'anaviy usulda kiyim-keçak hamda gilamlar töqiş san'atining rivojlanişiga zamin yaratdi. XIX asr va XX asr boşlariga qadar asosan xotin-qizlar tomonidan uy hunarmandçiligi darajasida davom ettirilgan gilamdözlik özida voha ahlisining estetik qaraşlari, dunyoqaraşi, diniy-mifologik tasavvurlari va uruğ tamğalarini mujassam etgan öziga xos tarixiy manbadir. Surxon gilamlarining gajari, terma, taqir, qoqma va julxirsi kabi turlari özining töqiliş texnikasi, geometrik va zoomorfik naqşlar tizimi ("qöçqormuğiz", "qulf-kalit", "quroqgul") hamda tabiiy ranglar uyğunligi bilan san'atşunoslik va etnografiya fanlari uçun alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi.

ASOSİY QİSM

Töqimaçilik sanoati — xalq iste'moli tovarlari işlab çiqaruvçi eng muhim va qadimgi yengil sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu tarmoq turli xil

xomaşyolarni (tabiiy va sun’iy tolalar) qayta işlab, ip, mato, trikotaj, gilam, ip-kalava va boşqa töqimaçilik mahsulotlarini tayyorlaydi.

1. Asosiy xomaşyo turlari

Töqimaçilik sanoati öz faoliyatida asosan uç guruh xomaşyolardan foydalanadi:

• Tabiiy ösimlik tolasi: Paxta (eng keng tarqalgan), kanop, ziğir.
• Tabiiy hayvoniy tola: Jun va ipak.
• Kimyoviy va sintetik tolalar: Sun’iy (viskoza) hamda sintetik (poliefir, neylon, akril) tolalar.

2. Işlab çiqariş bosqiçlari

Töqimaçilik sanoati murakkab va köp bosqiçli jarayonlarni öz içiga oladi:

• Dastlabki işlov beriş: Xomaşyoni tozalaş, saralaş va titiş (masalan, paxtani tozalaş yoki junni yuviş).
• Yigiruv (Pryadeniye): Tolalardan puxta ip va kalava tayyorlaş jarayoni.
• Töqiş (Tkatşestvo): Tayyor iplardan töqimaçilik dastgohlarida mato hosil qiliş.
• Böyaş va pardozlaş (Otdelka): Matolarga rang beriş, naqş tuşiriş va ularni iste’molga tayyor holatga keltiriş.

3. Tarmoqning asosiy yönalişlari

• Paxta töqimaçiligi: Eng yirik tarmoqlardan biri bölib, paxta tolasini ip va matoga aylantiradi.
• Jun va ipakçilik: Tabiiy jun va pilla (ipak qurtidan olingan tola) mahsulotlarini qayta işlaydi.
• Trikotaj sanoati: Egiluvçan va yumşoq kiyim-keçaklar (paypoq, jemper, içki kiyimlar) işlab çiqaradi.
• Texnik töqimaçilik: Sanoat, qişloq xöjaligi va quriliş uçun maxsus matolar (brezent, qadoqlaş qoplari, filtrlar) tayyorlaydi.

4. Iqtisodiy ahamiyati

• Bandlikni ta’minlaş: Tarmoq köp mehnat talab qilgani bois minglab iş örinlarini yaratadi.
• Eksport salohiyati: Tayyor mahsulot va yarim tayyor iplarni taşqi bozorlarga çiqariş orqali mamlakat iqtisodiyotiga katta daromad keltiradi.
• Aholini ta’minlaş: Kundalik hayotimizda zarur bölgan kiyim-keçak, uy-rözğor buyumlari va boşqa matolarga bölgan ehtiyojni qondiradi.

Vohalarga xos töqimaçilik sanoati

1. Surxondaryo va Qaşqadaryo viloyatlarida: Jun va paxta tolalaridan turli buyumlar tayyorlangan. Boysun va boşqa hududlarda milliy matolar, kaştali kiyimlar va gilamlar işlab çiqariş an’analari mavjud. Surxon milliy kiyimlarida yorqin ranglar, öziga xos naqşlar va bezaklar köp uçraydi. Döppi, belboğ, joynamoz, gilam va turli rözğor buyumlari tayyorlangan.
2. Toşkent vohasiga xos xususiyatlar: Paxta tozalaş va ip-kalava işlab çiqariş rivojlangan. Zamonaviy töqimaçilik fabrikalari faoliyat yuritadi. Paxta tolalaridan turli gazlamalar, trikotaj va kiyim-keçaklar işlab çiqariladi.
3. Farğona vodiysi: Ayniqsa, ipakçilik va atlas-adras töqiş bilan maşhur. Marğilon şahri qadimdan ipak matolar işlab çiqariş markazi hisoblanadi. Xonatlas, şoyi, adras va beqasam kabi matolar tayyorlanadi. Ipak qurti boqiş va ipak ipini tayyorlaş an’analari rivojlangan.
4. Buxoro: Zardözlik san’ati bilan maşhur. Zar iplar yordamida milliy kiyimlar, çoponlar va boş kiyimlar bezatiladi. Kaştaçilik va sözana tikiş rivojlangan. Ipak, baxmal va boşqa nafis matolardan foydalaniladi.
5. Xorazm: An’anaviy töquvçilik va kaştaçilik rivojlangan. Milliy kiyimlar uçun rang-barang matolar tayyorlangan. Mahalliy naqşlar, geometrik şakllar va bezaklardan foydalanilgan. Gilamdözlik va kaştaçilik ham muhim örin tutadi. An’anaviy hunarmandçilik bilan zamonaviy texnologiyalar uyğunlaşgan.

Gilamdözlik tarixi va rivojlaniş bosqiçlari

Gilamlar asosan qöy junidan töqilgan. Örta Osiyoda XIX asrning örtalariga qadar gilamdözlik uy hunarmandçiligiga kirgan. Sohaning asosiy xomaşyo manbasi dehqonçilik va çorvaçilikdan olingan paxta hamda jundir. Ayniqsa, oq rangli jun gilamdözlar tomonidan nihoyatda qadrlangan. Gilam töqiş bilan Şerobod toğ qişloqlari aholisi şuğullangan. Gilamlar töqilişi va gulning joylaşişi bilan bir-biridan farqlangan hamda öziga xos ramziy ma'noga ega bölgan. Masalan, olaça gilamda tuşirilgan "qulf-kalit" ramzi turli xonadon eşigining döstga oçiq, duşmanga yopiqligini bildirsa, "quroqgul" turi ikki yoşning bir-biriga qöşa-qarişini anglatadi. Örta asrlarda gilamçilik uç yönalişda — köçmançi va yarim köçmançi çorvador qabilalarda, ötroq (qişloq yoki şahar) aholi orasida, saroy ustaxonalarida rivojlangan. Tadqiqotçilar Eron, Zakavkazye, Örta Osiyo gilamlarini alohida körsatib ötganlar.

XVI asrdan saroy (Eron) gilamlari yaxşi saqlangan. Bu gilamlar ("Turunj", "Şoh Abbos", "Boğ", "Ov" va boşqalar) amaliy san'atning nodir namunalaridir. Ular miniatyura ustalari — musavvirlarning çizgilari asosida töqilgan. Gilamçilik Turkiya, Boburiylar davrida Hindistonda ("Möğul", "Agra" va b. gilamlar), Misr, Suriya, Kavkaz ortida taraqqiy etdi. XVIII–XIX asrlarda gilamçilik Zakavkazye va Örta Osiyoda saroylarda emas, balki xalq orasida keng tarqaldi. Asosiy markazlari Kazax, Ganja, Şirvon, Boku, Naxiçevan bölgan Zakavkazye gilamlari rang-barang mujassamoti, ijro usuli va badiiy jihati bilan, Turkmaniston gilamlari ("Salor", "Sariq", "Taka yovmut", "Başir" va boşqalar) qizil rangining teranligi, handasiy gullari va öta pişiqligi bilan ajralib turadi. Ğarbiy Yevropa gilamçiligida XVI asrdan flamand, fransuz, nemis şpalerlari alohida örin tutgan. XVII–XVIII asrlardan patli gilamlar (1624-yilda Parijda asos solingan Savoneri manufakturasida) işlab çiqarila boşlangan, keyinroq Angliya va Ispaniyada ham patli gilamlar tayyorlaş yölga qöyilgan. XIX asrdan gilamlar fabrikalarda işlab çiqarila boşlagaç, uning sifati keskin pasayib ketdi. XX asr örtalaridan badiiy hunarmandlikda gilamçilikni qayta

tiklaşga urinişlar samarali böldi. Polşa, Bolgariya, Ruminiya, Yugoslaviya patli gilamlari bilan bir qatorda patsiz gilamlar ham tayyorlana boşladi.

Gilamçilik Örta Osiyo, xususan, Özbekiston hududida juda qadimdan rivojlangan (Xorazmdagi arxeologik qazişlar paytida miloddan avvalgi 1-ming yillikka mansub gilam namunasi topilgan). Gilamçilik bilan asosan ayollar şuğullangan, naqş (gul)lar (islimiy, girih, hayvon şakllari, turli narsalar tasviri, uruğ tamğasi va boşqalar)ni esa xotirada saqlaşgan. Bezaklarida yölbars va tuya izlari, olma guli, uzum zangi, tuya böyni, qalqon, ösimliklar ifodalangan, ayniqsa hayvon şoxi tasviri keng tarqalgan. Mujassamotining berkligi, markaziy maydonning naqşli hoşiya bilan öralganligi (yöl-yöl naqşlar bundan mustasno) Örta Osiyo gilamlari uçun xos bölgan, naqşining aniqligi, gözal bölişi va ranglarining uyğunligi ularning badiiy qimmatini oşirgan. Asosiy rang qizil rang va uning 2–3 tusi bölib, kök, qora, oq, sariq ranglar ikkinçi darajali bölgan. Ranglarning mohirona işlatilişi bilan ifodali tasvir hosil qilingan. Bir naqş qismlarini turli körinişlarda böyalişi bilan rang-baranglikka va jozibadorlikka erişilgan. Andijon, Samarqand gilamlari, qoraqalpoqlar töqigan ötov jihozlari badiiy jihatdan mohirona işlangan. Andijon gilamlarining pati qisqa, qalin va mayin bölgan. Samarqandning rangdor uzun patli julxirs (“ayiq teri”) gilami öziga xosligi bilan ajralib turadi.

XX asrga kelib gilamçilik öziga xos tarzda taraqqiy etdi, gilamçilik markazlarida gilam töqiş rivojlandi, artellar tuzilib, ularga xalq ustalari jalb qilindi (masalan, Andijon viloyati Oyim qişloğidagi gilam töqiş arteli), ularda bir xil naqşli, yuqori sifatli gilamlar, şuningdek, mayda rözğor buyumlari töqildi. 30-yillarning 2-yarmidan mavzuli va tasvirli gilam namunalarini yaratişga urinişlar böldi. Gilamçilik markazlarida Kavkaz gilamlari, an’anaviy turkman gilamlari xilidagi birmunça soddalaştirilgan gilamlar işlab çiqarildi, faqat Samarqand gilami (julxirs) özining an’anaviy uslubini, rangdorligini saqlab qoldi. 40–50-yillarda gilamçilik markazlari (Samarqand, Kitob, 1946; Xiva, Andijon, Termiz, 1947; Şahrisabz, 1949;

Xöjayli, 1954) taşkil etildi, mahalliy ustalar şogirdlar tayyorladi, qadimiy an'anaviy naqşlar tiklandi. Rassom va hunarmand ustalar hamkorligi natijasida muvaffaqiyatlarga erişildi. Amaliy va mahobatli san'at an'analaridan unumli foydalanilib, dastlabki yangi nusxa Xorazm gilami va unga xos bölgan feruza rang zamin yaratildi.

Surxon vohasi gilamdözlik maktabi

Surxon vohasi taqir gilamlari bilan maşhur. Bu gilamlar xalqning diniy tasavvurlari va e'tiqodlarini özida aks ettiruvçi handasaviy, islimiy, zoomorf va antropomorf naqşlar bilan bezatilgan. Taqir gilam paxta ipidan töqilgan. Dastlab uning turli ranglardan iborat boşlaniş qismi töqilgan va u "suv yöli" deb atalgan. "Suv yöli" qismida 3–4 qanat oq va qora iplardan örilgan "qoş uyurma" deb atalgan bezak ham solingan. Gilamning eng muhim detallaridan biri — "çetki qora", ya'ni gilamning çekkalari qalinligi 4–5 sm bölgan jiyak bilan hoşiyalangan. Unga eçki junidan yigirilgan ip işlatilgan. Töqiş jarayonida gilamning asosini taşkil etuvçi iplardan qilingan tugunçalar öng yoki çapga töliq bir marta ötkazilganda oraliq asbobi oldinga yoki orqaga suriladi. Tugunçalar, agar astarli iplar böylama bölsa, ötkazilmaydi. Gilam töqilişi qolip oxiriga 1–1,5 metr qolganda qirqiladi, çunki astarlik iplari oxirlagan sayin tortişib taranglaşadi va uzilib ketiş holati kuzatiladi. Kesilgandan söng gilamning ikki yoniga astarlardan qolgan qismidan bezak berilgan. Astarlik iplari uç-tört dona ipdan iborat tugunçalar qilingan, bu bilan iplarning böşab ketmasligi ham ta'minlangan. Taqir gilam töqiş ança qiyin jarayon bölib, unga örtaça 12–14 kg atrofida ip sarflanadi. Taqir gilam töqişda Surxon vohasida yaşovçi turkmanlarning ersari uruği ança maşhur bölgan. Qöy junidan oq, qora, kök va boşqa rangdagi junlardan taqiyamt tayyorlanadi. Jun tozalanib titiladi va sobov çöp yordamida savalanadi, söng qozonga solinib, har xil rangda böyaladi va kanor ustiga yotqiziladi. Keyin esa turli gullar çiqariladi, asosan rombli va xoçsimon naqş bilan bezatiladi. Şundan söng ustiga ozroq suv sepib, kanorning bir

çetidan örab buraladi. Örab bölingaç, bilak va tizza yordamida bosib, xariga tortib, urib pişitiladi — bunda asosan yoş yigitlar iştirok etadilar. Mazkur holat bir neça marta takrorlangaç, mahsulot tayyor holga keladi.

Surxon vohasi gilamlari turlari

• Qoqma gilam – iplarni maxsus asbob bilan urib-ziçlab töqiladigan gilam.
• Taqir gilam – tuksiz, yuzasi tekis, naqşli gilam.
• Ğajari gilam – yöl-yöl rangli qismlar va naqşlar uyğunligida töqiladigan tuksiz gilam.
• Terma gilam – rangli iplarni terib, naqş hosil qiliş orqali tayyorlanadi.
• Qiz gilam – an'anaviy sep tarkibida uçraydigan bezakli gilam.
• Oy gilam – markaziy medalyonli naqşlari bilan ajralib turadi.
• Julxirsi – uzun yoki qalin junli, yumşoq gilam turi.

Ğajari — Surxondaryo viloyatining eng maşhur patlarsiz (tuksiz) gilam turi hisoblanadi. U eni tor bölgan bir neçta mato bölaklarini (köpinça vertikal yölli naqşlar bilan) alohida töqib, keyin ularni bir-biriga tikiş orqali tayyorlanadi. Naqşlarida asosan geometrik şakllar, ramziy hayvonlar hamda "köz-munçoq" nusxalari ustunlik qiladi. Surxon vohasi gilamçilik sanoati keng rivojlangan bölib, avloddan avlodga ötib kelayotgan an'ana sanaladi.

Jun gilamlari tayyorlaş bosqiçlari va badiiy xususiyatlari

Surxon vohasida jun gilamlari tayyorlaş bir neça bosqiçdan iborat:

1. Jun oliş – qöylar qirqilib, jun yiğib olinadi.
2. Jun tozalaş – jun çang, xas-çöp va boşqa aralaşmalardan tozalanadi.
3. Jun taraş – tolalar bir tekis holatga keltiriladi.
4. Ip yigiriş – çarx yoki urçuq yordamida jun ipga aylantiriladi.
5. Böyaş – iplar tabiiy yoki boşqa böyoqlar yordamida ranglanadi.
6. Töqiş – tayyor iplar dastgohda gilam şaklida töqiladi.

Surxon vohasida gilamdözlik xalq hunarmandçiligining qadimiy yönalişlaridan biridir. Ayniqsa, Boysun, Şerobod, Sariosiyo va boşqa hududlarda junni qayta işlaş, ip yigiriş hamda turli töqima buyumlar tayyorlaş an'analari mavjud. Gilamlarda qizil, qora, oq, jigarrang va sariq ranglar köp uçraydi. Geometrik şakllar va ramziy naqşlardan foydalaniladi, tabiat, hayvonot va ösimlik dunyosiga oid tasvirlar aks ettiriladi. Gilamdözlik nafaqat rözğor ehtiyoji, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik qaraşlari va badiiy tafakkurini ifodalovçi san'at turidir. Gilam naqşlari orqali ajdodlarimizning dunyoqaraşi, tabiatga munosabati va milliy qadriyatlarini örganiş mumkin.

XULOSA

Töqimaçilik sanoati va gilamdözlik san'atining tarixiy taraqqiyoti hamda ularning öziga xos mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq etiş natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga kelindi:

1. Tarixiy va iqtisodiy uzviylik: Töqimaçilik insoniyat şakllanişi davridan boşlab hozirgi kunga qadar strategik yengil sanoat tarmoği sifatida iqtisodiy barqarorlik va aholi bandligini ta'minlaşda muhim örin tutadi. Qadimiy madaniyat markazlarida bölgani kabi, Markaziy Osiyo hududida ham ipak, paxta va jun tolalarini qayta işlaş texnologiyasi asrlar davomida takomillaşib, an'anaviy hunarmandçilikning tamal toşiga aylangan.
2. Lokal maktablarning rang-barangligi: Özbekiston hududida töqimaçilik sanoati geografik joylaşuv va xomaşyo manbalariga qarab öziga xos tarzda ixtisoslaşgan. Farğona vodiysining şoyi va atlas-adras töqiş maktabi, Toşkentning ip-kalava sanoati, Buxoroning zardözligi hamda Xorazmning geometrik kaştaçiligi yonida Surxon vohasi sof jun va paxtadan tuksiz hamda patli gilamlar töqiş böyiça mutlaqo mustaqil va yetakçi lokal maktab sifatida şakllangan.
3. Surxon gilamdözligining texnologik murakkabligi: Vohada gilam töqiş jarayoni jun olişdan boşlab, uni tozalaş, urçuq yoki çarxda yigiriş va tabiiy böyoqlar

yordamida ranglaş kabi köp bosqiçli murakkab tizimni taşkil etadi. Ayniqsa, ersari uruğiga xos bölgan va paxta ipidan öziga xos “suv yöli”, “qoş uyurma” hamda eçki junidan qilingan “çetki qora” jiyagi bilan töqiladigan taqir gilamlar, şuningdek, eni tor bölaklarni alohida töqib birlaştiriladigan gajari gilamlari voha aholisining yuksak muhandislik va badiiy mahoratidan dalolat beradi.
4. Semantik va falsafiy mazmun: Surxon viloyatining toğ va toğoldi tumanlarida (Boysun, Şerobod, Sariosiyo) tayyorlangan gilamlar şunçaki uy-rözğor buyumi emas, balki xalqning dunyoqaraşi, mifologik va diniy e’tiqodlarini saqlovçi moddiy manbadir. Gilamlardagi “qulf-kalit” (mehmondöstlik va xavfsizlik ramzi), “quroqgul” (oilaviy baxt va qöşa-qariş istagi) hamda geometrik-zoomorf naqşlar ajdodlarimizning falsafiy estetik tafakkurini aks ettiradi.
5. An’ana va zamonaviylik uyğunligi: XIX–XX asrlarda uy hunarmandçiligi sifatida rivojlangan gilamçilik bugungi kunda ham öz qiymatini yöqotgani yöq. Mahalliy ustalar tomonidan avloddan-avlodga ötkazib kelinayotgan “örmek” dastgohlarida töqiş an’analarini saqlab qoliş va ularni zamonaviy sanoat usullari bilan boyitiş nafaqat madaniy merosni asraşga, balki mintaqada hunarmandçilik turizmini yanada yuksaltirişga xizmat qiladi.

Özbek töqimaçilik sanoati hozirgi kunda rivojlangan bölib, kelajak avlodlarga yetkaziş borasida köpgina işlar amalga oşirilmoqda. Ustoz-şogird an’analari asosida köplab yoşlarning uşbu hunarmandçilikka qiziqişlari oşib bormoqda. Töqimaçilik sanoatini rivojlantirişda zamonaviy texnologiyalardan foydalaniş ham yölga qöyilgan.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR RÖYXATİ

1. Asatullayev, I. (2018). Özbekiston an’anaviy töqimaçilik va gilamdözlik san’ati. Toşkent: Yangi asr avlodi.

2. Borozna, N. G. (1975). Виды ковровых изделий узбеков и их локальные особенности // Советская этнография. № 1. – С. 35–48.

3. Mukanov, M. S. (1981). Казахские домашние художественные ремесла (в сравнении с узбекским и туркменским ковроделием). Алма-Ата: Жалын.

4. Murodov, Ş. (2020). Surxon vohasi xalq amaliy san’ati va etnografiyasi. Termiz: Jayhun naşriyoti.

5. Pugachenkova, G. A., & Rempel, L. I. (1982). Очерки искусства Средней Азии: Древность и средневековье. Москва: Искусство.

6. Sodiqov, A., & Örinboyeva, M. (2021). Töqimaçilik sanoati tarixi va milliy matolar töqiş texnologiyasi. Farğona: Klassik naşriyoti.

7. Tursunov, S., Alimardonov, T., & Tursunov, A. (2012). Surxondaryo – etnografik makon. Toşkent: Akademnaşr.

8. Umarov, K. (2019). Örta Osiyo xalqlarining an’anaviy gilamçilik san’ati (XIX–XX asrlar). Buxoro: Durdona.

9. Xakimov, A. A. (2007). Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. Ташкент: San’at.

10. Zikiryayev, A. (2015). Yengil sanoat va töqimaçilik texnologiyalari asoslari. Toşkent: Öqituvçi.